

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING ZAMONAVIY IMIDJI

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

3-o‘quv kurs kursanti

Xasanova Muqaddas Ikrom qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ichki ishlar organlarining zamonaviy imidji, unga qo‘yiladigan talablar, ichki ishlar organlarida mazkur sohada amalga oshirilgan tarbiyaviy ishlar, ularning normativ-huquqiy asoslari va amalga oshirish mexanizmlari yoritilgan.*

Kalit so‘lar: *imidj, tarbiyaviy ishlar, normativ-huquqiy asos.*

СОВРЕМЕННЫЙ ИМИДЖ СОТРУДНИКОВ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Аннотация: *В данной статье освещены современный облик органов внутренних дел, требования к нему, воспитательная работа, проводимая в органах внутренних дел, нормативно-правовые основы и механизмы её реализации.*

Ключевые слова: *имидж, просветительская работа, нормативно-правовая база.*

MODERN IMAGE OF EMPLOYEES OF INTERNAL AFFAIRS BODIES

Annotation: *This article covers the modern image of the internal affairs bodies, the requirements to admire it, educational work carried out in this area in the internal affairs bodies, their regulatory legal framework and mechanisms of implementation.*

Key words: *image, educational work, regulatory framework.*

“Agar davlat tayanadigan asosiy ustun qonun bo‘lsa, uning kuchini amalda namoyon etadigan eng samarali tizim bu – ichki ishlar sohasi, desak, ayni haqiqat bo‘ladi”

Sh.M.Mirziyoyev

Bugun davlatimiz rahbari boshchiligida xalqchil va demokratik tamoyillarga asoslangan yangi O‘zbekistonni barpo etmoqdamiz. Shu maqsadda, avvalo, bebaho boyligimiz bo‘lgan tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga eng muhim vazifa sifatida ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. So‘nggi yillardagi islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma‘rifiy asoslari yaratildi. Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta‘minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash maqsadida, keng jamoatchilik muhokamasi

natijasida “Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi. Quyidagilar taraqqiyot strategiyasining asosiy yo‘nalishlari etib belgilandi:

inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;

mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;

milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shirish sur‘atlarini ta‘minlash;

adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;

ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;

milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;

mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

Shundan ikkinchi yo‘nalish bevosita ichki ishlar organlariga ta‘aluqlidir. Sababi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risi”dagi qonunning 2-moddasida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta‘minlash, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi ichki ishlar organlarining huquqni muhofaza qiluvchi organ sifatidagi asosiy vazifalari ekanligi belgilab berilgan.

Taraqqiyot strategiyasining 16-maqsadi jamoat xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo‘lgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratishga qaratilgan bo‘lib, huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, jamoat tartibini saqlash bo‘yicha patrullik xizmati faoliyatini tubdan takomillashtirish, shu jumladan zamonaviy axborot-texnologiyalarini joriy etgan holda fuqaroni ichki ishlar bo‘limiga tekshirish uchun olib borish amaliyotidan voz kechish, yo‘l infratuzilmasini takomillashtirish va xavfsiz harakatlanish sharoitlarini yaratish orqali yo‘llarda avariya va o‘lim holatlarini qisqartirish, shu jumladan harakatni boshqarish tizimini to‘liq raqamlashtirish va jamoatchilikning ushbu sohadagi ishlarda keng ishtirokini ta‘minlash orqali amalga oshiriladi. 17-maqsadi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlarini, inson qadr-qimmatini, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo‘naltirish deb nomlanib, unga ichki ishlar organlarini xalqning ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish hamda aholi bilan maqsadli ishlashga yo‘naltirish, qonuniylikni qat‘iy ta‘minlovchi, ochiq va adolatli prokuratura faoliyatining mustahkam huquqiy asoslarini yaratish hamda “Qonun — ustuvor, jazo — muqarrar” tamoyilini bosh mezoniga aylantirish va tezkor-qidiruv va tergov faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish, fuqarolarning qadr-qimmatini va erkinligini samarali himoya qilishning ta‘sirchan mexanizmlarini joriy etish orqali erishiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki ichki ishlar organlariga bo‘lgan talab yanada ortib bormoqda. Ishki ishlar organlari faoliyatini yana takomillashtirish, sohani rivojlantirish va xodimlarning kasbiy malaka, ko‘nikma va

fuqarolar bilan muloqotini oshirish ichki ishlar organlari oldidagi dolzarb vazifalardan biridir. Bu vazifalarning ijrosiga faqatgina kuchli, salohiyatli, yetuk, professional va yuksak madaniyatli kadrlar bilan erishish mumkin. Har bir xodim bilan individual ishlash, ularni har taraflama qo'llab quvvatlash, ularga samarali mehnat sharoitlarini yaratish, ular xizmatini to'g'ri tashkil etish, ularning malakasini doimiy oshirib borish orqali ichki ishlar organlarining yangi qiyofasini shakllantirish mumkin. Zamon talablariga mos ravishda Yangi O'zbekistonning ichki ishlar organlari ham yangilanib, takomillashib bormoqda. Xozirgi davr xodimlardan har qanday sharoitda davlat va xalq manfaatlariga xizmat qiladigan, milliy qadriyatlarga sodiq, umuminsoniy qadriyatlarga tayanadigan, yot va buzg'unchi g'oyalarga murosasiz kurashuvchi, iymon-e'tiqodi va irodasi mustahkam, ma'naviyatli va fidoyi, ajdodlarimiz va mardlik ko'rsatib halok bo'lgan xodimlarning bebaho merosiga tayanib yashaydigan barkamol shaxs sifatida o'zlarini namoyon qilishni, talab qilmoqda. Demak islohotlar ijrosini taminlashning birlamchi bo'g'ini xodim ekan avallo ularga asosiy e'tibor qaratilmog'i kerak. Xodimlar bilan ishlash va ularga tasir etishning va ma'naviyatini oshirishning eng samarali usuli tarbiyaviy, targ'ibot-tashviqot ishlari ma'naviy-ma'rifiy ishlardir.

Ichki ishlar organlarida tarbiyaviy ishlarga to'xtalishdan avval tarbiyaning tushunchasi va uning inson hayotidagi ahamiyatiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Tarbiyaga eng chiroyli ta'rif, mening fikrimcha Abdulla Avloniy tomonidan berilgan ya'ni, "Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir!"

"Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qumoq, o'qutmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur. Sog' badanga ega bo'lmagan insonlar amallarinda, ishlarinda, ibodatlarinda kamchilik qilurlar... Ichkulik, ko'knor, nasha, afyun, taryok, chilim, nos, popirus kabi badanning salomatligig'a zararli, og'ulik, ba'zisi harom, ba'zisi makruh, ba'zisi isrof bo'lgan narsalardan qochmak, saqlanmak shariat, aql, hikmat yuzasidan lozimdur.

Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur.

Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa,
Xanjar, olmosdan bo'lur o'tkur.
Fikrning oyinasi olursa zang,
Ruhi ravshan zamir o'lur benur

Axloq tarbiyasi: insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi axloq tarbiyasidir. Biz avvalgi darsda tarbiya ila dars orasida farq bor, deduk, chunki dars oluvchi-biluvchi, tarbiya oluvchi-amal qiluvchi demakdur..."

Abdulla Avloniy

Xodimlar bilan olib borilayotgan tarbiyaviy ishlar ham aynan ularning ham ma'nan, ham jismonan barkamolligini oshirishga qaratilmog'i lozim.

Ichki ishlar organlarida tarbiyaviy ishlar ma'naviy-ma'rifiy ishlar tarkibiga kirib, faoliyatning bu yo'nalishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar

to'g'risida"gi PQ-5050-son qarorining 3-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan Ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish konsepsiyasi asosida tashkil etiladi. Ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish konsepsiyasi ushbu sohadagi ishlarning ustuvor yo'nalishlari va asosiy prinsiplari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, avvalo, ichki ishlar organlari tizimida xizmat qilayotgan barcha xodimlar va harbiy xizmatchilarning umumiy dunyoqarashi, siyosiy ongi, ma'naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik, g'urur, iftixor, kasbiga nisbatan sadoqat va yuqori mas'uliyat hislarini oshirish bilan bog'liq vazifalarni belgilab beradi. Konsepsiya milliy va xalqaro huquq normalari asosida ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish, xodimlarning ma'naviy salohiyati va mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, ularning ongida Vatan taqdiri hamda kelajagi uchun daxldorlik tuyg'ularini mustahkamlash bilan bog'liq faoliyatning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Xodimlarning ma'naviy-ruhiy tayyorgarligini oshirish, faol hayotiy pozitsiyasi, intellektual salohiyatini, Ona Vatan taqdiriga bo'lgan mas'uliyatini mustahkamlash, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetini kuchaytirish, ularni fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini sadoqat va fidoyilik bilan vijdonan bajarishga yo'naltirish bo'yicha ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish ushbu konsepsiyaning asosiy mazmunini ifodalaydi. Konsepsiyaga ko'ra, ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar "Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish — oliy burchimiz!" konseptual g'oyasi asosida tashkil etilib, unda davlat mustaqilligini himoya qilish, huquq-tartibotni mustahkamlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash hamda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilish ustuvor vazifa sifatida belgilanadi.

Mazkur g'oyaning asosiy mazmun-mohiyati fuqarolarning tinchligi va mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash uchun har qanday huquqbuzarlikka qarshi kurashishda o'z jonini ayamaydigan, vatanparvarlik, fidoyilik, sadoqat va halollik fazilatlariga ega xodimlarni shakllantirishdan iborat.

Konsepsiyaning asosiy maqsadi xodimlarni har qanday sharoitda davlat va xalq manfaatlariga xizmat qiladigan, milliy qadriyatlarga sodiq, umuminsoniy qadriyatlarga tayanadigan, yot va buzg'unchi g'oyalarga murosasiz kurashuvchi, iymon-e'tiqodi va irodasi mustahkam, ma'naviyatli va fidoyi, ajdodlarimiz va mardlik ko'rsatib halok bo'lgan xodimlarning bebaho merosiga tayanib yashaydigan barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ular qalbida davlat va xalqimizning xavfsizligini ta'minlashda shaxsiy daxldorlik va yuqori mas'uliyat hissini shakllantirishdan iborat.

Quyidagilar Konsepsiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

xodimlarning ma'naviyati va intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda boy madaniyatimiz, azaliy qadriyatlar va an'analarimizga asoslangan dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan yagona tizimni yaratish;

xodimlarning ongu tafakkuriga Vatan va xalq manfaatlariga xizmat qilish sharafli va muqaddas burch ekanini anglatish, davlatimiz va ichki ishlar organlarining timsollari bilan faxrlanib, qasamyodiga sodiq bo'lish hamda kasbiy burchini bajarishda qonuniylikka qat'iy rioya etish tuyg'usini chuqur singdirish orqali xalqning ularga bo'lgan ishonchi va hurmat hissini yuksaltirish;

xodimlarning ongi va qalbiga “Yangi O‘zbekiston — uchinchi Renessans sari!” g‘oyasining mazmun-mohiyatini singdirish asosida ularning Vatan va xalq taqdiriga, davlatimiz hamda islohotlar talablariga daxldorligini yanada oshirish;

shaxsiy tarkibga mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qonunchilik hujjatlari mazmun-mohiyatini tizimli tushuntirish hamda dunyoda va yon-atrofimizda sodir bo‘layotgan globalashuv jarayonlariga nisbatan ularning ongli munosabati hamda faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirish;

milliy merosimizning tarixiy ildizlarini o‘rganish hamda tahlil qilish, Vatanimiz ozodligi va tinchligi yo‘lida qahramonlik ko‘rsatgan buyuk ajdodlarimiz va jasur zamondoshlarimizning ibratli hayotini keng targ‘ib etish asosida xodimlarda xizmat burchini bajarish borasida qat‘iy hayotiy e‘tiqodni qaror toptirish;

xodimlarning estetik tarbiyasini kuchaytirish, ularning madaniyat va san‘atning turli sohalariga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, ushbu maqsadda adabiyot, kino, teatr, tasviriy san‘at imkoniyatlaridan keng foydalanishni tizimli asosda yo‘lga qo‘yish;

xodimlarning ichki va tashqi ma‘naviy tahdidlar hamda korrupsiyaga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, ichki ishlar organlarining ijobiy imijini shakllantirish hamda shu maqsadda fuqarolik jamiyati institutlari, jamoat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish.

Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar har qanday mashaqqatli xizmat ortida yurtimiz manfaati va xalqimizning farovonligi turganini har bir xodim ongiga hamda qalbiga singdirish, shuningdek, ichki ishlar organlarini aholiga o‘z vaqtida va sifatli yordam ko‘rsatadigan, xalq manfaatlariga xizmat qilishni o‘zining muqaddas hamda oliy burchi deb biladigan ijtimoiy yo‘naltirilgan professional tuzilmaga aylantirishning asosiy omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5050-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentyabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonun.